**Ostonokulov Azamat Abdukarimovich, Tadjiyev Erkin Muxitdinovich**

SUN'IY VA KIMYOVIY TOLALARNING TO'QIMACHILIK SANOATIDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDAGI O'RNI ........ 723
**Raximov Furqat Jalolovich**

OLIY TA'LIM MASSASALARINING MOLIYAVIY RESURSLARINI BOSHQARISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 728
**Mahmudov Akbar Abduxamidovich**

TA'LIM XIZMATLARI BOZORINI TAKOMILLASHTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLAR ........ 733
**Abdullayev Suyun Artikovich**

O'ZBEKISTONDA AVTOMOBILSOZLIK KORXONALARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI: "UZAUTO MOTORS" AJ AMALIYOTI VA NATIJALARI ........ 737
**Allabergenov Azamat Joldasbayevich**

WAYS TO USE MARKETING DATA IN THE MANUFACTURING ENTERPRISE VALUATION PROCESS ........ 742
**Musayeva Shoira Azimovna, Usmonova Dilfuza Ilkhomovna**

KICHIK SANOAT KORXONALARI O'RTASIDAGI ISHLAB CHIQARISH VA KOOPERATIV ALOQALAR HOLATI ........ 747
**Boyturayev Olimjon Urayimovich**

BANK RISKLARI VA ULARNI TA'SIRINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHDA STATISTIK HISOBOTLARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI ........ 753
**Kamoldinov Sardorbek Maxammadsobir o'g'li**

O'ZBEKISTONDA AYOLLARNING ISH BILAN BANDLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI ........ 761
**Eshqobulova Charos O'roq qizi**

O'ZBEKISTONNING BARQAROR RIVOJLANISH KONSEPSIYASI: TARIXIY MEROS VA ZAMONAVIY YASHIL TEXNOLOGIYALAR UYG'UNLIGI ........ 766
**Azimova Shohista Salohiddinovna**

SOLIQ TIZIMIDA RAQAMLI MARKIROVKALANGAN TOVARLARNI RAQAMLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI ........ 770
**Muxammadov Nodir Karimovich**

BIZNES JARAYONLARINI OPTIMALLASHTIRISHDA "LEAN MANAGEMENT" TIZIMINI JORIY ETISHNING ILMIY ASOSLARI ........ 775
**Muhiddinov Ozodbek Ikromjon o'g'li, Shakirova Gulrux Po'latjon qizi, Ozodbek Musayev**

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING TURISTIK POTENTSIALI UMUMIY TAVSIFI ........ 783
**Madaminova Sanobar Askarovna**

KICHIK BIZNES KORXONALARIDA EKSPORT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH KONSEPSIYASINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI ........ 789
**Boymirzayev Zokirjon Mashrabboyevich**

AHOLINING TURMUSH DARAJASI VA UNING KO'RSATKICHLARI ........ 794
**Sayitbayev Shermirza Datkamirzayevich**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

KORXONA ASOSIY XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKT SIFATIDA AHAMIYATI ........ 799
**Yuldashova Yoqutoy Murodjon qizi, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich**

DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALARNI XUSUSIYLASHTIRISH JARAYONIDA KADRLAR SALOHIYATINI SAQLAB QOLISH VA RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI ........ 803
**Bekchanov Ruslan Ambiyatovich**

PARALLEL KORPUS ASOSIDA INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA QISHLOQ XO'JALIK ATAMALARINING EKVIVALENTLIK XUSUSIYATLARI ........ 807
**Yulduz Xalilova Nasriddinovna**

KOLBASA VA GO'SHT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISHDA CHIQINDISIZ ISHLAB CHIQARISH ("ZERO WASTE") MODELINING ROLI: XORIJIY TAJRIBA VA O'ZBEKISTON SHAROITIDAGI AMALIY YO'NALISHLAR ........ 810
**Eshtemirova Anora Norboy qizi**

EKSPORTYoR KORXONALARDA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI BO'YIChA QO'ShILGAN QIYMAT VA FOYDA SOLIG'INI TO'G'RI HISOBLANIShI TAHLILI VA ISTIQBOLLARI ........ 814
**Sobirova Xilola Rustam qizi**

O'ZBEKISTONDA TO'QIMACHILIK VA TIKUV-TRIKOTAJ SANOATI RIVOJLANISHINING MILLIY RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDAGI O'RNI ........ 819
**Ikramova Taxmina Latifovna**

# O‘ZBEKISTONDA TO‘QIMACHILIK VA TIKUV-TRIKOTAJ SANOATI RIVOJLANISHINING MILLIY RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDAGI O‘RNI

**Ikramova Taxmina Latifovna**
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, tayanch doktoranti.
E-mail: tahminaikromova400@gmail.com
ORCID: 0009-0007-6407-1245

Annotatsiya. Mazkur maqolada to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – to‘qimachilik tolalarini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to‘qimachilik gazlamalari va tayyor to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to‘qimachilik mahsulotlari va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, ularning tahlili, paxta-to‘qimachilik klasterlarining shakllantirilishi hamda yirik to‘qimachilik kompaniyalarning O‘zbekiston bilan hamkorligi ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: to‘qimachilik mahsulotlari, biznes, bozor, raqobat, klaster, investitsiya, eksport.

Abstract. In this article, the production of textile products – preparation and spinning of textile fibers, as well as the production of textile fabrics and finished textile products, decoration of textile products and clothing, production of ready-made textile products other than clothing, their analysis, the formation of cotton-textile clusters and the cooperation of large textile companies with Uzbekistan are examined.

Key words: textile products, business, market, competition, cluster, investment, export.

Аннотация. В статье рассматривается производство текстильной продукции – подготовка и прядение текстильных волокон, а также производство текстильных тканей и готовых текстильных изделий, декорирование текстильных изделий и одежды, производство готовых текстильных изделий, кроме одежды, их анализ, формирование хлопково-текстильных кластеров и сотрудничество крупных текстильных компаний с Узбекистаном.

Ключевые слова: текстильная продукция, бизнес, рынок, конкуренция, кластер, инвестиции, экспорт.

## KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi dunyo hamjamiyatida o‘z o‘rnini topishga harakat qilar ekan, siyosiy va iqtisodiy sohalarda jadal rivojlanish strategiyasini amalga oshirib kelmoqda. Ayniqsa, xalqaro bozorda raqobatda ustunlikni shakllantirish, eksport salohiyatini oshirish va uni amalga oshirish, mamlakatimizning nomini tanitish kabi maqsadlarning qo‘yilishi real iqtisodiyotning barcha sohalarida chuqur islohotlarni amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lmoqda. O‘zbekiston tabiiy-geografik joylashuvi va tarixiy-ijtimoiy xususiyatlari bilan boshqa mamlakatlardan katta farq qiladi, hususan: – Bugungi kunda mamlakatimiz dengizga chiqish uchun ikki va undan ortiq chegaralarni o‘tish zarurati bilan dunyoda ikkita mamlakatdan biri hisoblanadi.

Geografik joylashuvimiz eksportni amalga oshirishda logistik muammolarni vujudga keltiradi, mahsulot tannarxini oshiradi, uning raqobatbardoshligini kamaytiradi. Bunday vaziyatda xom ashyoni chuqur qayta ishlash, innovatsion mahsulotlarga urg‘u berish, ilm-fan yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etish strategiyasi yagona alternativa bo‘lmoqda; – O‘zbekiston tarixan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish bo‘yicha katta tajriba va shon-shuhratga ega bo‘lgan mamlakatlardan hisoblanadi. Paxta tolasini yetishtirish bo‘yicha mamlakatimiz etakchi beshtalikka kiradi. Markaziy Osiyoda ipak, paxta, teri va meva-sabzavotlar eksporti bo‘yicha O‘zbekiston birinchi o‘rinni egallab kelmoqda. Ushbu holat iqtisodiyotimizning ishlab chiqarish sanoati tarkibiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Xom ashyo bazasining mavjudligi engil sanoat korxonalarining rivojlanishiga va ushbu sohada milliy brendlar yaratilishiga asos bo‘lgan; – O‘zbekiston Respublikasida mehnat resurslarining hajmi va sifat tarkibi xom ashyoni qayta ishlash bo‘yicha katta tajriba va malakaga asoslanadi. Mamlakatimizda

tabiiy xom ashyoni yetishtirish va qayta ishlash bo'yicha tarixiy-ijtimoiy an'analar shakllangan, xalqimizning milliy qadriyatlari hamda global ijtimoiy ixtisoslashuv imkoniyatlari engil sanoat sohalariga moslashgan. Mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik ishchi kuchiga talab yuqori bo'lgan sanoatni rivojlantirishga muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Milliy raqobatbardoshlikni oshirishga oid mavjud adabiyotlar tahlili bozorning zamonaviy tamoyillari, brendni targ'ib qilish usullari va iste'molchilar talablariga moslashuvchan yondashuvni takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Bozor strategiyalari haqida mutaxassis R.G. Ibragimov o'zining darsligida quyidagi fikrni bildirib o'tadi: "Marketing strategiyasi deganda ma'lum muddatga belgilangan korxonaning bozordagi xatti-harakatlari tamoyillarining modelidan foydalanish tushuniladi. Uning yordamida korxona o'z muvaffaqiyatini ta'minlashga intiladi". Marketing strategiyasini rivojlantirish va uni amalda qo'llash bo'yicha ko'plab iqtisodchi olimlar shug'ullanib kelgan. Ular qatoriga F. Kotler, David Aeker, Klayton Christensen, Seth Godin, Kevin Keller, Byron Sharp, Jay Bayer kabi taniqli olimlarni kiritishimiz mumkin. Mamlakatimizda qator yillar davomida marketing sohasida olib borilgan izlanishlar milliy xususiyatlardan kelib chiqqan holda marketing nazariyasini rivojlantirishga katta hissa qo'shgan olimlarni ham e'tirof etish lozim. Bularga R. Ibragimov, Yo. Abdullaev, A. Saliev, M. Sharifxo'jaev, D. Raximova, Sh. Ergashxodjaeva, Sh. Musayeva va boshqalarni kiritish mumkin.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli yondashuv, marketing tahlili, taqqoslash va raqamli ko'rsatkichlarni baholash usullari qo'llanilgan. Ijtimoiy media platformalaridagi ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish uchun ommaviy kuzatuv usullaridan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi engil sanoatining eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati e'tirof etiladi. Mazkur sanoat korxonalarining o'rnini quyidagi tahliliy jadvaldan ko'rishimiz mumkin (1-jadval). Ushbu jadvalda mamlakatimiz sanoati, ishlab chiqarish sanoati va, xususan, to'qimachilik hamda kiyim ishlab chiqarish sanoatining 2017-2024-yillardagi rivojlanish dinamikasi ko'rsatilgan.

1-jadval. 2017-2024 yillarda O'zbekistonda to'qimachilik va kiyim ishlab chiqarishning rivojlanishi

| Klassifikator | o'lchov birligi | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Sanoat mahsuloti, jami | trln. sum | 148,8 | 235,3 | 322,5 | 368,7 | 456,1 | 553,3 | 659,8 | 885,80 |
| SHundan, Ishlab chiqarish sanoati | trln sum | 120,7 | 189,6 | 254,9 | 305,9 | 378,2 | 460,5 | 556,4 | 753,60 |
| To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish | trln. sum | 16,76 | 24,83 | 29,94 | 36,72 | 52,37 | 62,85 | 71,51 | 89, 45 |
| Kiyim ishlab chiqarish | trln. sum | 6,11 | 7,73 | 9,17 | 10,4 | 13,59 | 17,26 | 23,09 | 33,76 |
| To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishining Ishlab chiqarish sanoatidagi ulushi | % | 13,89 | 13,1 | 11,75 | 12,0 | 13,85 | 13,65 | 12,85 | 11,87 |
| Kiyim ishlab chiqarishining Ishlab chiqarish sanoatidagi ulushi | % | 5,06 | 4,08 | 3,6 | 3,40 | 3,59 | 3,75 | 4,15 | 4,48 |
| To'qimachilik va kiyim ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi | % | 18,95 | 17,17 | 15,35 | 15,4 | 17,44 | 17,4 | 17 | 16,35 |
| **o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi** | | | | | | | | | |
| To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish | % | 100,5 | 107,4 | 105,3 | 117,4 | 119,5 | 109,9 | 106,4 | 111,1 |
| Kiyim ishlab chiqarish | % | 110,5 | 103,3 | 108,7 | 107,2 | 118,7 | 105,8 | 112,7 | 109,4 |

Avvalo, mamlakatimizda sanoat mahsulotlari hajmining keskin o‘sishiga e’tibor qaratish lozim deb hisoblaymiz. Kuzatilgan davrda ushbu soha qariyb olti barobar o‘sishni ko‘rsatmoqda (148,8 trln.so‘mdan 885,8 trln. so‘mgacha). Uning tarkibidagi ishlab chiqarish sanoatining o‘sish sur’ati birmuncha yuqori, ya’ni 6,24 barobarga oshgan, bu esa xomashyo qazib olishga nisbatan uni qayta ishlash jarayoni ancha yuqori bo‘lganini bildiradi.

Tadqiqotimiz obyekti bo‘lmish to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatining rivojlanishini tahlil qiladigan bo‘lsak, o‘tgan davr ichida to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish 16,76 trln.so‘mdan 89,45 trln.so‘mgacha (5,34 barobarga), kiyim ishlab chiqarish esa 6,11 trln.so‘mdan 33,76 trln.so‘mgacha (5,33 barobarga) oshgan. To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatining ishlab chiqarish sanoatidagi ulushi 2017-yilda 18,95 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, 2024-yilda 16,35 foizga teng bo‘lgan, ya’ni 2,6 foizga kamaygan. Demak, bugungi kunda ham ishlab chiqarish sanoatida yaratilgan har oltinchi mahsulot to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati mahsulotiga tegishlidir. Ushbu ma’lumotlar mamlakatimizning iqtisodiy salohiyatida ushbu tarmoqning ahamiyatini ko‘rsatib bermoqda.

To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – to‘qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to‘qimachilik gazlamalarini va tayyor to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to‘qimachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi. Kiyim ishlab chiqarish – barcha materiallardan tikilgan mahsulotlarni (tayyor yoki alohida buyurtma bo‘yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlarini (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) hamda aksessuarlarni ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi. 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 12,9 foizni tashkil etgan, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 6,4 foizga ko‘payib, ishlab chiqarish hajmi 71 121,1 mlrd.so‘mga to‘g‘ri kelgan. 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida kiyim ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,1 foiz bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 109,9 foizni tashkil etgan va ishlab chiqarish hajmi 22 478,3 mlrd.so‘mga to‘g‘ri kelgan.

2024-yilning yanvar–dekabr oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 11,9 %ni tashkil etgan, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 11,1 %ga ko‘payib, ishlab chiqarish hajmi 89 451,2 mlrd so‘mga to‘g‘ri keladi. 2024-yilda to‘qimachilik sanoati faoliyatini tahlil qiladigan bo‘lsak, mamlakatimizda to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish 89,5 trln so‘mga teng bo‘lgan, kiyim ishlab chiqarish esa 33,8 trln so‘mni tashkil qilgan (jami 123,3 trln so‘m). 2023-yilda to‘qimachilik va kiyim ishlab chiqarish 94,6 trln so‘mni tashkil qilgan. Bu ishlab chiqaradigan sanoatning hajmidagi ulushini 16,4 %ga yetganini ko‘rsatadi. 2024-yilning yanvar–dekabr oylarida kiyim ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,5 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 9,4 %ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 33 764,2 mlrd so‘mga to‘g‘ri keldi. Quyidagi diagrammalarda 2017–2024-yillarda to‘qimachilik va tikuv–trikotaj mahsulotlarining ishlab chiqarish hajmi va fizik hajmining o‘zgarish grafiklari ko‘rsatilgan (1 va 2-rasmlar).




1-rasm. O‘zbekistonda 2017-2024 yillarda to‘qimachilik mahsulotlari va kiyim ishlab chiqarishning o‘zgarishi, mlrd.so‘m.




2-rasm. 2017-2024 yillarda to‘qimachilik mahsulotlari va kiyim ishlab chiqarishning fizik hajmi indeksi,%.

Yuqorida keltirilgan raqamlar ortida respublikada olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar va soha mutaxassislarining mashaqqatli mehnati yotibdi. Buning asosiy sababi jahon to‘qimachilik bozoridagi kuchli raqobat va unga kirib borish hamda teng kurash olib borish uchun sohani davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning obyektiv zaruratidir. Oxirgi o‘n yillikda milliy to‘qimachilik va to‘quv–trikotaj korxonalarining eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha ko‘plab institutsional va iqtisodiy mexanizmlar ishlab chiqilgan bo‘lib, bugungi kunda erishilgan yutuqlar ko‘p jihatdan ularning amalga oshirilishi bilan bog‘liq.

Birinchi o‘rinda to‘qimachilik va tikuv–trikotaj sanoatining raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan me’yoriy–huquqiy bazaning yaratilishiga e’tiborni qaratmoqchimiz. Mamlakatimiz Prezidenti to‘qimachilik sanoatini rivojlantirishga katta e’tibor berib kelmoqda, oxirgi yillarda ushbu sohani yanada rivojlantirish bo‘yicha bir necha farmon va qarorlar e’lon qilindi. Yangi O‘zbekistonda to‘qimachilik sanoatini tubdan isloh qilishning boshlang‘ich nuqtasi sifatida 2017-yil 14-dekabrda qabul qilingan 5285-son[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonini ko‘rsatish mumkin. Mazkur farmonda belgilangan maqsadlar 2017–2021-yillarda rivojlanish strategiyasida, keyinchalik esa Yangi O‘zbekistonni 2022–2026-yillarda rivojlanish strategiyasida o‘z aksini topgan. 2017–2022-yillar davomida O‘zbekistondan to‘qimachilik mahsulotlari eksporti hajmi qariyb to‘rt barobar oshdi. 2017-yilda mamlakatimiz 49 davlatga 880 million dollarlik to‘qimachilik mahsulotlarini yetkazib bergan bo‘lsa, 2021-yili O‘zbekiston mahsulotlari yetkazilgan mamlakatlar soni 67 taga, hajmi esa 3 milliard dollarga yetgan. Joriy yil oxiriga kelib bu ko‘rsatkichning 3,5 milliard dollarga oshishi kutilmoqda. 2027-yilda O‘zbekiston dunyoning 90 dan ortiq davlatiga 10 milliard dollarlik to‘qimachilik mahsulotlarini yetkazib berish niyatida.[2]

Bugungi kunda mamlakatimizning to‘qimachilik va tikuv–trikotaj sanoatining asosiy yutuqlariga quyidagilarni kiritish mumkin: xalqaro bozorda O‘zbekistonning teng huquqli sherik sifatida tan olinishi. Prezidentimiz tomonidan amalga oshirilgan yirik islohotlar paxta xom ashyosini yetishtirishda majburiy va bolalar mehnatidan foydalanishga barham berilishi xalqaro hamjamiyat tomonidan O‘zbekiston paxtasi va uning mahsulotlarining bozorga kirib borishiga imkon yaratib berdi. Paxta–to‘qimachilik klasterlarining shakllantirilishi ham yirik to‘qimachilik kompaniyalarining O‘zbekiston bilan hamkorlik qilishiga olib keldi. Natijada Yevropa Ittifoqi tomonidan O‘zbekiston GSP+ preferensiyalariga ega bo‘ldi, ya’ni 6000 dan ortiq tovarlarning Yevropa bozoriga kirishda eksport solig‘idan ozod bo‘ldi. Bunday imtiyozlarga dunyoda faqat sakkizta mamlakat ega bo‘lgani O‘zbekistonga bo‘lgan ishonchning yuqoriligidan dalolat beradi. O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan to‘qimachilik mahsulotlari Hugo Boss, Diesel, Tendam, Inditex, El Corte, Engelbert Strauss, The North Face, Collins, S.Oliver, LC Waikiki, De Facto, Pierre Cardin, Falke kabi mashhur savdo brendlari do‘konlarida sotilmoqda. Markaziy Osiyo va MDH mamlakatlari bo‘yicha to‘qimachilik sanoatining markaziga aylanishi. To‘qimachilik sanoatini rivojlantirishning “o‘zbek modeli” barcha qo‘shni davlatlarda ommaviy joriy qilinmoqda va o‘z samarasini bermoqda. O‘zbekiston korxonalari Markaziy Osiyo, Gruziya, Armaniston, Ozarbayjonlik hamkorlar bilan o‘zaro manfaatli aloqalarni yo‘lga qo‘yganlar. Respublikada ishlab chiqarilgan to‘qimachilik mahsulotlarining yarmidan ko‘pi MDH davlatlariga eksport qilinadi. Keyingi yillarda bunday hamkorlik Xitoy, Janubiy Koreya, Pokiston kabi davlatlar bilan ham yo‘lga qo‘yilmoqda.

1 https://lex.uz/docs/-3459667
2 https://yuz.uz/ru/news/razvitie-tekstilnoy-i-shveyno-trikotajnoy-promshlennosti-uzbekistana-v-2017-2022-godax-infografika

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Barqaror rivojlanish va xalqaro standartlarga rioya qilish bo‘yicha yetakchilik alohida ahamiyatga ega. Ishlab chiqarish sanoatining ushbu tarmog‘i an’anaviy tarzda elektr quvvatini ko‘p talab qiluvchi sohalardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda bosqichma-bosqich olib borilayotgan choralar energiyani tejash bo‘yicha innovatsion g‘oyalarning yaratilishiga, xalqaro ekologiya standartlariga javob beradigan texnologiyalarni joriy etishga iqtisodiy asos yaratib bermoqda. Prezidentning to‘qimachilik mahsulotlarining sifat jihatdan xalqaro bozorda o‘z o‘rnini egallashiga qaratilgan siyosati ham e’tiborga loyiq. “Masalan, to‘qimachilikda 7 mingga yaqin tadbirkor 500 dan ziyod turdagi mahsulotlarni chiqarayapti. Ayrimlari nufuzli brendlarga kiyim-kechak yetkazib berayapti. Lekin ko‘pchilik sifatga ishlayotgani bilan, buni ko‘rsatib bera olmayapti.

Hozirgacha faqat 244 ta korxonamizda xalqaro sertifikat bor, xolos. Ularning ham katta qismi Toshkent va vodiy viloyatlarida bo‘lib, boshqa hududlarda barmoq bilan sanarli”. To‘qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalariga berilayotgan imtiyozlar va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash bilan bir qatorda mamlakatimiz investitsion siyosati ham katta ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, mamlakatimizga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalarni maqsadli yo‘naltirishda ishlab chiqarish sanoatining o‘rni beqiyos. Xulosa qilganda, yuqoridagi harakatlar natijasida milliy to‘qimachilik korxonalari uchun qulay biznes sharoitlari yaratilmoqda. Shu bilan birga, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida xalqaro raqobatbardoshlikni ta’minlashga qaratilgan marketing tizimini kuchaytirish muammosi mavjud bo‘lib, ushbu yo‘nalishda ilmiy izlanishlarni chuqurlashtirish zarurligi ko‘rinmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi 166-son qarori. https://lex.uz/uz/docs/-5348948
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini himoya qilish mamlakat taraqqiyoti va xalq farovonligining garovidir. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 48 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Biz buyuk kelajakni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 24-yanvar. – Xalq so‘zi, 2020-yil 26-yanvar.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni. https://lex.uz/docs/-3107036
6. Azimovna M.S. (2022). Professor of Samarkand Institute of Economic and Service, Samarkand, Uzbekistan. Formation of Psychology and Pedagogy as Interdisciplinary Sciences, 1(9), 20–23.
7. Musayeva S., Usmanov F. (2022). Ways to Develop Marketing Activities in Tourist Organizations. Science and Innovation, 1(A5), 84–88.
8. Azimovna M.S., Ilkhomovna U.D., Shokhrukhovich U.F. (2022). Issues of Improving Productivity Competition in Agriculture. Ijtimoiy fanlarda innovatsiya onlayn ilmiy jurnali, 51–53.
9. Azimovna M.S., Ilkhomovna U.D., Shokhrukhovich U.F. (2022). The Role of Marketing in Increasing the Economic Efficiency of Service Enterprises.
10. Azimovna M.S., Ilkhomovna U.D., Shokhrukhovich U.F. (2022). The Concept of a Correct Marketing Policy in Trade and Service Enterprises.
11. Musayeva S. (2022). Studying the Organization of Advertising Activities of Goods at “Samarkand Tea Packaging Factory” JSC. Science and Innovation, 1(A6), 185–192.
12. Musayeva S. (2022). Prospects for the Development of “Stekloplastik” LLC Activity in the Conditions of the Market Economy. Science and Innovation, 1(A6), 539–546.
13. Azimovna M.S., Ilkhomovna U.D., Shokhrukhovich U.F. (2022). Importance and Characteristics of Brand Choice in Services. European Multidisciplinary Journal of Modern Science, 1–3.
14. Musaeva Sh.A. Marketing tadqiqotlari. Darslik. “STAR-SEL” MChJ nashriyot va ijodiy bo‘limi. Samarqand – 2023.
15. Musaeva Sh.A. Integrallashtirilgan marketing kommunikatsiyasi. O‘quv qo‘llanma. “Mahorat” nashriyoti, Samarqand – 2022.

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir oʻgʻli

**2025. № 11**



© Materiallar koʻchirib bosilganda ""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.


Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.


El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07


Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna boʻlishingiz mumkin. Obuna boʻlgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga toʻlov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida joʻnatishingizni soʻraymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga joʻnatamiz.


""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulugʻbek tumani
Kumushkon koʻchasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz